



**LUQMON BO‘RIXONNING “IMOM MOTURIDIY” ROMANIDA TARIXIY-  
BIOGRAFIK JANRNING BADIY VA ILMIY XUSUSIYATLARI: SYUJET  
STRUKTURASINING TAHLILI**

**Qozoqboyeva Mahliyo Komilovna**

*ToshDO‘TAU “Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti”*

*yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

*[mahliyoqozoqboyeva3@gmail.com](mailto:mahliyoqozoqboyeva3@gmail.com) +998957719708*

**Ziyayeva Yulduz Temirxonovna**

*Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanida tarixiy-biografik janrning badiiy va ilmiy xususiyatlari hamda asarning syujet strukturasi tahlili o‘rganiladi. Tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik janrning yorqin namunalaridan biri bo‘lgan mazkur roman tanlangan. Maqolada roman Somoniylar davri (IX–X asrlar) tarixiy muhiti, Imom Abu Mansur al-Moturiydiyning hayot yo‘li va ilmiy merosini yoritishda muallifning ilmiy manbalarga (tarixiy yilnomalar, Qur‘on tafsirlari, Imom Moturiydiyning asarlari) asoslanishi tahlil qilinadi. Badiiy jihatdan esa tarixiy faktlarning ijodiy talqini, obrazlar tizimi, ramziy tasvirlar va psixologik chuqurlik masalalari ko‘rib chiqiladi.*

*Asosiy e‘tibor syujet strukturasi tahliliga qaratilgan. Roman syujeti ekspozitsiya (“Uch o‘tliq”), tugun (“Sirli maktub”), voqealar rivoji, kulminatsiya (“Sir fosh bo‘lgankun”) va yechim (“Qatl”) bosqichlariga ajratib tahlil etilgan. Muallif roman kompozitsiyasining uch qismga bo‘linishi, boblarning mazmunli sarlavhalari va konflikt turlarining (siyosiy, diniy-aqidaviy, psixologik) uyg‘unligini alohida ta‘kidlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *tarixiy-biografik roman, syujet strukturasi tahlili, ekspozitsiya-tugun-voqealar rivoji-kulminatsiya-yechim, badiiy va ilmiy uyg‘unlik, Imom Abu Mansur al-Moturidiy obrazi, konflikt turlari (siyosiy, diniy-aqidaviy, psixologik).*

**Abstract.** *This article examines the artistic and scientific features of the historical-biographical genre in Luqmon Bo‘rixon’s novel “Imom Moturidiy” and provides a detailed analysis of the novel’s plot structure. The research object is this novel, which is recognized as one of the brightest examples of the historical-biographical genre in modern Uzbek literature. The article analyzes how the author relies on scientific sources — such as historical chronicles, interpretations of the Holy Quran, collections of authentic hadiths, and Imam Abu Mansur al-Maturidi’s own works (“Kitab at-Tawhid”, “Al-Fiqh al-Akbar”, “Ta’wilat al-Qur’an”) — in depicting the historical environment of the Samanid period (9th–10th centuries), Imam al-Maturidi’s life journey, and his scholarly legacy. From the artistic perspective, the creative interpretation of historical facts, the system of characters, symbolic imagery, and psychological depth are thoroughly studied.*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



*Particular attention is paid to the analysis of the plot structure. The novel’s plot is analyzed by dividing it into the following stages: exposition (“Uch otliq” / “Three Horsemen”), knot (“Sirli maktub” / “The Mysterious Letter”), development of events, climax (“Sir fosh bo‘lgan kun” / “The Day the Secret Was Revealed”), and denouement (“Qatl” / “The Execution”). The author especially emphasizes the division of the novel into three main parts, the meaningful titles of the chapters, and the harmonious integration of various types of conflicts (political, religious-doctrinal, and psychological).*

**Keywords:** *historical-biographical genre, plot structure analysis, artistic and scientific synthesis, Imam Abu Mansur al-Maturidi’s image, types of conflict, philosophy of tolerance and forgiveness,*

Tarixiy-biografik janr o‘tmishdagi real tarixiy shaxslar hayotini, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ruhiy olamini tarixiy manbalarga asoslanib, badiiy tasavvur kuchidan foydalangan holda talqin etishga qaratilgan murakkab adabiy janr sifatida tadqiqotchilar tomonidan o‘rganiladi. Bu janrda tarixiylik (ilmiy aniqlik) va badiiylik (ijodiy talqin) o‘rtasidagi muvozanat asarning ilmiy-badiiy qiymatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani mazkur janr talablariga to‘liq javob beradigan yetuk asar sifatida o‘zbek adabiyotshunosligida muhim o‘rin egallaydi.

Roman Somoniylar davri (IX–X asrlar) siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy muhitini chuqur ilmiy asosda yoritadi. Muallif davrning tarixiy yilnomalari, Qur’oni Karim tafsirlari, sahih hadislar to‘plamlari hamda Imom Abu Mansur al-Moturiydiyning o‘z asarlari (“Kitob at-Tavhid”, “Al-Fiqh al-Akbar”, “Ta’vilot al-Qur’on”) kabi birlamchi manbalarni sinchkovlik bilan o‘rganib, romanga ilmiy poydevor yaratgan.<sup>14</sup> Bu manbalar asosida Luqmon Bo‘rixon moziydagi voqealarni oddiy bayon qiluvchi emas, balki milliy ma’rifat va ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatida gavdalanadi. Uning ijodiy yondashuvida tarixiy xotirani yaqqol ko‘rsatish, milliy g‘ururni rivojlantirish va bugungi ma’naviy muammolarga javob izlash birlamchi ustuvor vazifadir.

Asarda Samarqand shahri “Qubbatul islom va al-muslimin” (Islom va musulmonlarning gumbazi) hamda “Saqlai islom” (Islomning quvvati) kabi tarixiy-unvonlar bilan ulug‘lanib, IX–X asrlar Movarounnahrida ilm-fan ravnaqi, aqidaviy kurashlar (Mu’tazila, Jabariya, Xorijiya, Murji’iya kabi oqimlar) va butun bir davr – kalom ilmining shakllanish jarayoni, aql va naql (vahy) muvozanati, islomiy oqimlar o‘rtasidagi kurash ochib berilgan.<sup>15</sup> Yozuvchi ilmiy dialoglar va aqidaviy bahslarni romanning asosiy qismiga aylantirgan. Bu jihatdan asar nafaqat badiiy, balki falsafiy-aqidaviy roman sifatida ham baholanadi. Ilmiy faktlarning aniqligi va tarixiy voqealar (Amir Ahmad ibn Ismoilning o‘ldirilishi, Is’hoq ibn Nuh isyoni, Xolid Xalaj hokimligi va boshqalar) romanning ilmiy qiymatini oshiradi. Yozuvchi o‘tmishni chuqur taftish etish orqali zamonaviy o‘quvchiga ma’naviy o‘rnak va falsafiy saboq

<sup>14</sup> Nasirov A. O‘zbek romanchiligi. Darslik. –Samarqand, SamDU nashri, 2023.

<sup>15</sup> Luqmon Bo‘rixon. “Imom Moturidiy” roman. Toshkent, “Adabiyot”, 2022.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yetkazadi. Natijada, roman o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik janrni yangicha talqin etib, o‘tmish ma’naviy saboqlarini xalq ongiga singdirishda muhim qurol bo‘lib xizmat qilgan.

Tarixiy faktlarga ijodiy ishlov berish romanning badiiy yuksakligini ta’minlaydi. Muallif moziydagi shaxsiyotni jonli ruhiyatga ega, murakkab ichki kechinmalarga boy qahramon sifatida gavdalantiradi. Imom Moturidiy obrazi nafaqat buyuk olim va mutakallim, balki ulug‘ mutafakkir, aqidashunos, ma’naviyat qahramoni va darveshona sobitqadam inson sifatida bosqichma-bosqich ochiladi. Yon obrazlar (Idris Shomiy, Vosiq La’liy, Mastonbibi va boshqalar) orqali asosiy qahramonning fazilatlarini yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi.<sup>16</sup>Asarda tarixiy isbot, badiiy to‘qima va ma’naviy falsafa yakka yaxlit tizimga birlashtirilgan. Chuqur falsafiy va diniy tushunchalar xalq tilida, sodda va tushunarli uslubda bayon etiladi.

Roman kompozitsion jihatdan uch yirik qismga bo‘lingan bo‘lib, har bir qism alohida boblariga ajratilgan va boblar maxsus mazmunli sarlavhalar bilan atalgan. Bu kompozitsion yechim bejiz emas, balki chuqur badiiy va mazmuniy maqsadlarga xizmat qiladi. Luqmon Bo‘rixon Imom Moturidiyning hayot yo‘lini xronologik tartibda aks ettirgan. Asar bosh qahramonning bolaligidan boshlanib, uning ilm-fan va aqida sohalarida yetuk mutafakkir bo‘lib yetishishi, og‘ir sinovlar va kurashlar davri hamda vafotidan so‘ng “Chokardiza” qabristoniga dafn etilishi bilan yakunlanadi. Romanning uch qismga bo‘linishi buyuk mutafakkir hayotining uch muhim bosqichini mantiqiy va falsafiy jihatdan ifodalaydi:

- Birinchi qism — bolalik va shakllanish davri;
- Ikkinchi qism — yetuk olim bo‘lib yetishish, aqidaviy kurashlar va sinovlar davri;
- Uchinchi qism — hayotning yakuniy bosqichi, meros va abadiylik mavzusi.

Shuningdek, tabiat tasvirlari, ramziy epizodlar (masalan, “Oy to‘lishgan kun” bobidagi tush), ichki monolog va dialoglar syujetni dramatiklashtiradi hamda psixologik chuqurlik yaratadi. Muallif tarixiy voqealarni, o‘tmishdagi saboqlarni bugungi kun ma’naviy talablari bilan bog‘laydi, o‘tmishni chuqur taftish etish orqali zamonaviy o‘quvchiga ma’naviy o‘rnak va falsafiy saboq yetkazadi. Natijada, roman o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik janrni yangicha talqin etib, o‘tmish ma’naviy saboqlarini xalq ongiga singdirishda muhim qurol bo‘lib xizmat qilgan.

**Syujet strukturasi klassik tahlili:** “Imom Moturidiy” romani syujeti o‘zbek adabiyotshunosligidagi klassik qoliplarga asoslanadi: ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim. Bu tuzilish asarni dramatik va izchil qiladi. Asarning muqaddima qismida berilgan ekspozitsiya uning dastlabki bobi “Uch otliq” da ham davom etadi. Bu qismda Imom Moturidiy ta’rifi (ellik yoshlarga borib qolgan, ozg‘in, chayir, sochlariga oq oralagan, harakatlari o‘smir yigitlar kabi, o‘ychan, har narsaga e’tibor bilan boquvchi mayus ko‘zlar, yuzida xushfe’llik porlab turadi), uch otliqning yetuk allomaning yoniga tashrif buyurishi, Samarqandning yangi hokimi Xolid Xalajning Qal’ai qasriga taklif etgani va u buyuk zotning rad javobini bergani, shu voqeadan keyin romandagi voqealar izchil va

<sup>16</sup> Luqmon Bo‘rixon. “Imom Moturidiy” roman. Toshkent, “Adabiyot”, 2022.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



shiddatli tarzda davom etishi batafsil aks ettirilgan.<sup>17</sup>Roman syujetining qolgan qismlarida ham ekspozitsiya voqealar jarayoniga singdirib borilgan. Tarixiy-biografik romanda syujetning tuguni — bu asarning badiiy to'qimasida asosiy ziddiyatlarning paydo bo'lishi va keyingi voqealar rivojini belgilovchi muhim kompozitsion bosqichdir. Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanida tugun ikkinchi bob — "Sirli maktub"da boshlanadi. Bu bob romanning syujet chizig'ida burilish nuqtasi bo'lib, unda bir necha turdagi konfliktlar bir vaqtda shakllanadi va keyingi voqealar rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Tugunning markazida Imom Abu Mansur Moturiydiyning Samarqand hokimi Xolid Xalajga yozgan maktubi turadi. Samarqand qozikaloni Idris ibn Vaysal Shomiy ushbu maktubni g'arazli maqsadlarda noto'g'ri talqin qiladi va uni hokimning qalbida buyuk allomaga nisbatan kuchli adovat urug'ini paydo qilish vositasi sifatida ishlatadi. Bu voqea oddiy tushunmovchilik emas, balki ataylab uyushtirilgan fitna va xiyonat sifatida tasvirlanadi. Natijada, ilm va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyat keskinlashadi. Ushbu tugunda quyidagi konflikt turlari bir vaqtda namoyon bo'ladi:

- Siyosiy konflikt — ilm ahli va davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligi;
- Diniy-aqidaviy konflikt — turli aqidaviy oqimlar (xususan, Mu'tazila ta'siridagi kuchlar) va Ahli sunna val jamoa vakili bo'lgan Imom Moturidiy o'rtasidagi kurash;
- Shaxsiy-psixologik konflikt — hasad, qasos va shaxsiy manfaatlar asosidagi adovat. Idris Shomiy obrazi tugunning eng muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Muallif uning salbiy xatti-harakatlarini darhol to'liq ochib bermaydi, balki asta-sekin, retrospektiv usulda ochadi. Bu usul o'quvchida qiziqish uyg'otadi va qahramonning ichki dunyosini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Idris Shomiyning harakatlari shaxsiy qasos va oldingi voqealar (otasi va oilasining taqdiri) bilan bog'liq bo'lib, bu esa uning xiyonatini yanada murakkab va psixologik jihatdan chuqur qiladi. Shu bobda yana bir muhim salbiy qahramon — Imom Moturiydiyning shogirdi Javod ibn Fayozning adovat ruhi ham sekinlik bilan ochila boshlaydi. Javodning ustoziga nisbatan ichki nafrati dastlab nozik detallar orqali (ustozning darveshona qiyofasi, gap-so'zlarini "dabdurustdan anglab bo'lmasligi" kabi mulohazalar) beriladi. Bu adovat keyingi boblarida yanada ochiq shaklda namoyon bo'ladi va asosiy syujet chizig'ini boyitadi.

"Sirli maktub" bobi orqali Luqmon Bo'rixon tarixiy-biografik romanga xos bo'lgan muhim badiiy tamoyilni amalga oshiradi: tarixiy voqeani shaxsiy va ijtimoiy konfliktlarga aylantirish. Oddiy maktubning noto'g'ri talqini orqali muallif jamiyatdagi fitna, hasad va ilmga bo'lgan hurmatsizlik muammolarini ko'rsatadi. Bu tugun roman syujetini keyingi bosqichlarga — voqealar rivoji va kulminatsiyaga mantiqiy o'tkazuvchi kuchli poydevor yaratadi. Voqealar rivoji tugun va kulminatsiya o'rtasida sodir bo'ladi. Xolid Xalaj jazolash uchun yo'lga chiqqan paytdan boshlab, Idris Shomiy sir-asrorlardan xabardor bo'lgunga

---

<sup>17</sup> Luqmon Bo'rixon. "Imom Moturidiy" roman. Toshkent, "Adabiyot", 2022.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qadar davom etadi. “Muqaddas fitna” guruhining fitnalari, yolg‘on maktublar, maydon va amir huzuridagi bahslar, siyosiy-shaxsiy kurashlar ketma-ket kuchayadi. Bu bosqich Imom Moturidiyning mustahkam e’tiqodi, bag‘rikengligi va ilmga sodiqligini yorqin ko‘rsatadi. Yondosh obrazlar (shogirdlar, dushmanlar, oila a’zolari) orqali ziddiyatlar chuqurlashib, asarning falsafiy-aqidaviy mazmuni boyiydi. Badiiy asarda kulminatsiya syujet rivojining eng yuqori cho‘qqisi, asosiy konfliktlarning keskinlashuvi va qahramonlarning ichki va tashqi ziddiyatlarining eng yuqori darajada namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanida kulminatsiya “Sir fosh bo‘lgan kun” bobida gavdalanadi. Ushbu bob butun asar syujetining dramatik va emotsional jihatdan eng kuchli nuqtasi sifatida maydonga chiqadi. Badiiy asarda kulminatsiya syujet rivojining eng yuqori cho‘qqisi, asosiy konfliktlarning keskinlashuvi va qahramonlarning ichki va tashqi ziddiyatlarining eng yuqori darajada namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Kulminatsiyaning markazida Samarqand qozikaloni Idris ibn Vaysal Shomiyning haqiqatni anglashi turadi. U “Muqaddas fitna” nomli g‘ayriislomiy guruhning o‘z oilasini (otasi va yaqinlarini) yo‘q qilganini, bu jinoyatni esa musulmonlarga, xususan, Ahli sunna vakillariga yuklaganini aniq bilib oladi. Bu vahiy kabi haqiqat Idris Shomiyni kuchli ruhiy inqiroz va chuqur pushaymonlik holatiga olib keladi. Muallif qahramonning ichki kechinmalarini quyidagi ta’sirli ifoda orqali ochib beradi: “Odamxo‘rlar. Vaxshiylar... meni aldabdilar...” Bu ibora Idris Shomiyning butun dunyoqarashining ag‘darilishini, o‘zi uzoq vaqt xizmat qilgan yolg‘on va fitna tizimidan voz kechishini ramziy jihatdan ifodalaydi. Keyinchalik u Vosiq La‘liy huzurida ochiq iqror bo‘ladi: “Allohga qasamki, Samarqandaga kelib imom Abu Mansurdek chin olimni, ulug‘ mutafakkirni, islomning asl mujohidini ko‘rmadim. Hazrat Moturidiy fitnalarning, firqalar vujudga kelishining asl mohiyatini nozik angladi...”<sup>18</sup> Bu iqror kulminatsiyaning eng muhim ruhiy nuqtasi hisoblanadi. Idris Shomiy o‘zining oldingi hayoti, xatti-harakatlari va Imom Moturidiyning shaxsiyatiga nisbatan qilgan adolatsizliklarini qayta baholaydi. Muallif bu orqali salbiy qahramonning murakkab ruhiy olamini ochib, uni bir tomonlama “salbiy qahramon” sifatida emas, balki aldangan, ichki kurashda bo‘lgan inson sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Vosiq La‘liy obrazi kulminatsiyada o‘zining o‘jarligi va ruhiy qashshoqligini saqlab qoladi. U Idris Shomiyning iqrorini eshitgan bo‘lsa-da, nafrat va hasadini tark etmaydi. Ikki salbiy qahramon o‘rtasidagi bu qarama-qarshilik (pushaymonlik va o‘jarlik) kulminatsiyaga qo‘shimcha dramatik kuch bag‘ishlaydi va o‘quvchida kuchli emotsional ta’sir uyg‘otadi. Adabiyotshunoslik nazariyasida yechim syujet tarkibining yakuniy bosqichi bo‘lib, unda boshlangan konfliktlarning hal etilishi, qahramonlar taqdirining aniqlanishi va muallifning asosiy g‘oyaviy-konsepsiyaviy xulosasi mujassam etiladi. Yechim kulminatsiyada yuzaga kelgan dramatik keskinlikni yumshatish bilan birga, asarga ma’rifiy, axloqiy va falsafiy yuklamani yanada chuqurlashtiradi. Luqmon Bo‘rixonning “Imom

---

<sup>18</sup> Luqmon Bo‘rixon. “Imom Moturidiy” roman. Toshkent, “Adabiyot”, 2022.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Moturidiy” romanida yechim kulminatsiya bilan uzviy bog‘langan holda “Qatl” bobida gavdalanadi va butun asar syujetining mantiqiy hamda badiiy yakuni sifatida xizmat qiladi. “Qatl” bobi Idris ibn Vaysal Shomiyning o‘limga hukm qilinishi atrofida qurilgan. “Sir fosh bo‘lgan kun” bobida ochilgan sirlar — uning “Muqaddas fitna” firqasi bilan aloqadorligi, Imom Moturidiyning maktubini g‘arazli talqin qilgani, fitna va tuhmatlar uyushtirgani — Samarqand hokimi Xolid Xalaj tomonidan qattiq jazoga sabab bo‘ladi. Hokim qozikalonni qatl etishga buyruq berishga qaror qiladi. Biroq aynan shu dramatik vaziyatda asarning markaziy qahramoni — Imom Abu Mansur Moturidiy o‘zining eng yuksak insoniy va diniy fazilatlarini namoyon etadi. Imom Moturidiy Xolid Xalajdan Idris Shomiyni avf etishni so‘raydi. Ushbu epizod romanning eng ta’sirli va falsafiy jihatdan chuqur sahnalaridan biridir. Muallif bu daqiqani quyidagicha tasvirlaydi:

“– Afu?! – chinqirib yubordi Xolid Xalaj. – Nahotki? Siz kimni himoya etmoqqa shaylandingiz, hazrat? Axir, ushbu mal’un kaminani sizg‘a qarshi qayradi, maktubingizni buzuq sharh etib berdi. Kaminani g‘azabga keltirdi. – Balki, hukmdor. Ammo men afu etdim. Illo, shariat kaminadan-da oliyjanob, jo‘mard, tantidur. Dinimiz hamisha o‘zining xalqqa mehru muhabbati ila ne-ne g‘ayur ellarni mahliyo etib kelgan. Islom haqqi hurmati, ani afu eting”.<sup>19</sup> Bu dialog orqali Luqmon Bo‘rixon Imom Moturidiyning nafaqat buyuk mutafakkir va aqidashunos sifatida, balki chin ma‘nodagi bag‘rikenglik, avf etuvchanlik, oliyjanoblik va insonparvarlik timsoli sifatida gavdalandiradi. Imomning avf so‘rovi shaxsiy haqorat va tuhmatlarga qaramay, dushmaniga nisbatan ham rahmdillik ko‘rsatishga asoslangan. Bu yerda shaxsiy qasosdan ko‘ra ilohiy adolat va shariatning oliy tamoyillari ustun qo‘yiladi.

Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik janrning eng yetuk namunalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu asarda tarixiylik va badiiylik, ilmiy aniqlik va badiiy tasavvur muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilgan. Yozuvchi Somoniylar davri (IX–X asrlar) tarixiy voqealari, aqidaviy kurashlar va Imom Abu Mansur al-Moturidiyning hayot yo‘lini chuqur ilmiy manbalarga asoslanib yoritgan holda, uni jonli, ruhiyati murakkab va yashovchan qahramon sifatida gavdalandirishga muvaffaq bo‘lgan.<sup>20</sup> “Imom Moturidiy” romani o‘zbek tarixiy-biografik romanchiligini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim rol o‘ynadi. Luqmon Bo‘rixon o‘tmishdagi buyuk shaxs timsoli orqali zamonaviy o‘quvchiga mustahkam e‘tiqod, bag‘rikenglik, ilmga sodiqlik va ma‘naviy jasorat kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Asar shunchaki tarixiy voqealarni hikoya qilish emas, balki milliy ma‘naviyatni yuksaltirish va o‘zlikni anglashda muhim ma‘rifiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

---

<sup>19</sup> Luqmon Bo‘rixon. “Imom Moturidiy” roman. Toshkent, “Adabiyot”, 2022.

<sup>20</sup> Uvatov U., Imom al-Moturidiy va uning ta‘limoti, T., 2000





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasirov A. O‘zbek romanchiligi. Darslik. –Samarqand, SamDU nashri, 2023.
2. Luqmon Bo‘rixon. “Imom Moturidiy” roman. Toshkent, “Adabiyot”, 2022.
3. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. «Navoiy universiteti» Toshkent 2018.
4. Uvatov U., Imom al-Moturidiy va uning ta’limoti, T., 20005.

